

GLOBAL INQIROZLARNING RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLARGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA

Ulug'bekova Sarvinoz Oybek qizi.

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiyfanlar
fakulteti talabasi*

MAQOLA MALUMOTI	Annotatsiya
MAQOLA TARIXI: <i>Received:16.07.2025 Revised: 17.07.2025 Accepted:18.07.2025</i>	<i>Ushbu ilmiy maqolada globallashuv jarayoni kuchayib borayotgan hozirgi davrda mamlakatlar duch kelgan va duch kelayotgan turli global inqirozlarning rivojlanayotgan davlatlar,xususan,O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu inqirozlarning yuzaga kelish omillari,ularning iqtisodiyotga ta'sir darajasi hamda O'zbekiston misolida ushbu inqirozlarga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritib berilgan.</i>
Kalit so'zlar: <i>Global inqirozlar, rivojlanayotgan davlatlar, iqtisodiy siyosat, O'zbekiston iqtisodiyoti, moliyaviy barqarorlik..</i>	

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan keskin o'zgarishlar, moliyaviy beqarorliklar,global pandemiyalar,siyosiy ziddiyatlar va tabiiy ofatlar global iqtisodiy inqirozlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.Xususan,2008-yilgi AQSHda boshlangan global moliyaviy inqiroz,2019-yilda butun dunyoni tahlikaga solgan COVID-19 pandemiyasi hamda oxirgi yillarda keskin avj olgan Rossiya-Ukraina urushi kabi omillar global iqtisodiyotga jiddiy zarba berdi. Ushbu inqirozlar nafaqat rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga,balki ularning iqtisodiy faoliyatiga bog'liq bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda.Ayniqsa,iqtisodiyoti yuqori o'sish sur'atlarida bo'lgan,eksport-import hajmi yuqori bo'lgan,tashqi sarmoyalarga tayanadigan davlatlar uchun global inqirozlar iqtisodiy o'sish sur'atining pasayishi,ishsizlik darajasining ortishi ,valyuta kursining beqarorlashuvi va inflatsiyaning kuchayishi kabi bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.O'zbekiston ham rivojlanayotgan davlat sifatida ushbu jarayonlardan chetda qolmaydi. Mamlakat iqtisodiyoti tashqi iqtisodiy aloqalarga

tobora ko'proq bog'lanib borayotgan bir paytda, global moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar uning iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Butun dunyoga xavf tug'diradigan va tahlikaga soladigan bu kabi global inqirozlarni kelib chiqish sabablarini o'rganish, ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini amalda to'g'ri qo'llay olish har bir mamlakat uchun muhimdir. Chunki inqirozlar har bir jamiyatga katta talofatlar olib kelishi mumkin. Bu mavzuning tanlanish sababi ham rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O'zbekistonning global inqirozlar qarshisidagi iqtisodiy barqarorlik darajasini baholash va bu borada qanday strategiyalar amalga oshirilyotganini o'rganishdir.

Ushbu maqola global iqtisodiy inqirozlarning mazmun-mohiyatini ochib berish, ularning rivojlanayotgan davlatlarga, ayniqsa O'zbekiston iqtisodiyotiga qanday ta'sir qilganini tahlil qilish, shuningdek, mamlakat miqyosida ko'rilgan choralarni o'rganish hamda istiqbolda yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lgan xavflarga qarshi qanday kurashish strategiyalari ishlab chiqilishi lozimligini aniqlashga qaratilgan.

Global inqirozlar bu butun dunyo yoki bir qancha mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan yirik miqyosdagi iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy, siyosiy yoki ekologik muammolar sanaladi. Ular odatda birdaniga yuzga kelmaydi, balki iqtisodiy tizimdagi ichki nomutanosibliklar, siyosiy beqarorlik, moliya bozorlaridagi ortiqcha xavf, tabiiy ofatlar yoki pandemiyalar oqibatida yuzaga keladi. Hozirgi davrga qadar dunyo mamlakatlari bir nechta yirik global inqirozlarni boshdan o'tkazgan va o'tkazmoqda. Ulardan eng zamonaviylari dunyo iqtisodiyotini larzaga keltirgan COVID-19 pandemiyasi, Rossiya va Ukraina o'rtasidagi o'zaro nizolar, iqlim o'zgarishlari natijasida yuz berayotgan iqtisodiy vaziyatlar va turli mamlakatlar o'rtasida yuz berayotgan o'zaro siyosiy nizolardir. Global inqirozlar, ularning kelib chiqish sabablari haqida bir qancha iqtisodiy qarashlar mavjud. Xususan, iqtisodchi Nouriel Roubini: "Global iqtisodiy inqirozlar-bu faqat moliyaviy tizimdagi buzilish emas, balki, siyosiy, energetik, iqlimiy omillar bilan bog'liq bo'lgan murakkab tizim", - deya ta'riflaydi.

Keynschilik nazriyasiga ko'ra, ya'ni iqtisodchi olim John Keyns: "Global inqirozlar iqtisodiy faollikning pasayishi, iste'mol va investitsiyalarning kamayishi tufayli yuzaga keladi", - degan fikrni ilgari surgan va buning yechimi sifatida davlatlar faol byudjet va monetar siyosat bilan bozorga aralashib, talabni rag'batlantirishi zarurligini ta'kidlab o'tgan.

Monetaristik nazariya bo'yicha, monetarist olimlar: "Inqirozlar sababi- pul massasining noto'g'ri boshqarilishi", - deb ta'kidlaganlar.

Inqirozlarning rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga ta'sirining bir qancha sabablari mavjud:

Birinchidan, bir tomonlama iqtisodiyot, ya'ni ko'p hollarda bir qancha rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti bir xil turdagi xom-ashyo (neft, gaz, paxta, rudalar) eksportiga tayanadi. Bunday hollarda, global narxlarning pasayishi yoki tashqi talabning qisqarishi mamlakatlar iqtisodiyotiga kuchli zarba beradi. Misol uchun, Iroqda 2020-yilgi global pandemiya oqibatida byudjet daromadlarining 90% ini tashkil etuvchi neft narxining global miqyosda pasayishi oqibatida, mamlakat iqtisodiy daromadi 65% gacha kamaydi, bu esa mamlakat iqtisodiyotiga ulkan zarba berdi.

Ikkinchidan, moliyaviy beqarorliklar: rivojlanayotgan davlatlar ko'pincha tashqi qarzga va valyuta rezervlariga bog'liq bo'ladi, bu esa inqirozlar paytida mamlakatlar milliy valyutasining qadrsizlanishi, import narxlarining oshishiga sabab bo'ladi.

Uchinchidan, mehnat bozori zaifligi: yashirin ishsizlik, vaqtincha ishlovchilar sonining ko'pligi, malakali ishchi kuchi yetishmasligi yoki chetga chiqib ketishi, moliya tizimining zaiflashuvi, bank tizimining yetarlicha rivojlanganligi inqirozlar paytida rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini tahlikaga soladi.

O'zbekiston ham rivojlanayotgan davlat sifatida ushbu inqiroziy ofatlardan chetda qolmadi. Xususan, inqiroz talofatlari, asosan, savdo-sotiq, investitsiya, narxlar va inflyatsiya kabi jarayonlarda namoyon bo'ldi. Misol uchun, Rossiya-Ukraina urushi natijasida Rossiya rublining qadrsizlanishi oqibatida O'zbekiston so'mi 2022-yil 24-fevral-18-mart, ya'ni deyarli bir oy oralig'ida taxminan 6,7% gacha qadrsizlandi. Avvalgi yillarda bu faqat taxminan 3,4% bo'lgan. So'm tushishi mahalliy import narxlarini oshirdi, shu bilan birga valyuta bozorlarida talab ortdi. Markaziy bank 2022-yilda taxminan 2.4 mlrd. dollar miqdorida valyuta interversiyalarini o'tkazdi. Valyuta qadrsizlanishi, ayniqsa, chet el valyutasida qarz olgan biznes subyektlari uchun qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqardi. Rossiya-Ukraina urushi davrida esa O'zbekistonning eng yirik savdo sheriklari bo'lgan Rossiya va Ukraina bilan savdo aloqalarida pasayishlar kuzatildi.

Shuningdek, 2020-yilda pandemiya tufayli eksport hajmi 13,1% ga qisqardi, ayniqsa paxta tolasi, gaz va metallar eksporti kamaydi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 22% ga kamaygan.

O'zbekiston hukumati tomonidan ushbu inqiroziy vaziyatlarda bir qancha islohotlar o'tkazildi. Jumladan, 2020-yilgi pandemiya davrida 15 trilion so'mlik antikrizis jamg'armasi tashkil etildi. Bu mablag'lar sog'liqni saqlash, ijtimoiy yordam va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi. Mamlakat tomonidan soliq va kredit imtiyozlari ajratildi. Korxonalarga soliq ta'ili, bojxona imtiyozlari va past foizli kreditlar berildi. Ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i stavkasi kamaytirildi. Inflyatsiyani nazorat qilish

uchun qayta moliyalash stavkasi 14-16% oralig'ida tutib turildi va so'm qadrsizlanishining oldini olish uchun 2.4 mlrd dollar miqdorida valyuta intervensiyasi qilindi. Shuningdek, Rossiya-Ukraina o'rtasidagi o'zaro mojarolar paytida, narxlarning o'sishini jilovlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida, erkin import qo'llab-quvvatlash orqali, 22 dan ortiq turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha bojlar vaqtincha bekor qilindi, davlat zaxiralari orqali arzonlashtirilgan mahsulotlar aholiga tarqatildi, import diversifikatsiyasi, ya'ni Rossiya va Ukraina bilan savdo hajmi pasayishi natijasida Qozog'iston, Hindiston, Turkiya bilan savdo aloqalari hajmi oshdi. Rossiyadagi sanksiyalar tufayli eksport yo'llarini Osiyo va Yevropa bozorlariga yo'naltirish boshlandi. Soliq va boj bo'yicha ko'plab imtiyozlar ajratildi.

Bu kabi iqtisodiy inqirozlarga qarshi kurashish va kelgusida yuz berish ehtimoli yuqori bo'lgan xavflar hamda ularni yumshatish strategiyalarini, chora-tadbirlarini hukumat tomonidan samarali tarzda ishlab chiqilishi va qo'llanilishi mamlakat iqtisodiyoti uchun eng muhim omillar hisoblanadi. Xususan, dunyo miqyosida energiya va xomashyo narxlarining o'ta beqarorligi tufayli, yashil energetikaga ko'proq sarmoya kiritish, energiya zaxiralarini ko'paytirish va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish zarur hisoblanadi. Bundan tashqari, global moliyaviy tizimdagi tangliklarni kamaytirish maqsadida valyuta zaxiralarini ko'paytirish, diversifikatsiyalangan savdo va investitsiya hamkorlari tarmog'ini shakllantirish, barobarida oziq-ovqat xavfsizligiga doir muammolarni bartaraf etishda, mahalliy qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalar orqali hosildorlikni oshirish, subsidiya siyosatini to'g'ri yuritish chora – tadbirlari ishlab chiqish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, global inqirozlar butun dunyo iqtisodiyotini, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. O'zbekiston misolida tahlil qilingan hollarda yaqqol ko'rinadiki, dunyo miqyosidagi global silkinishlar mamlakatlar iqtisodiyotiga tashqi savdoning qisqarishi, import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'sishi, inflyatsiyaning oshishi, valyuta kursidagi bosimlar, investitsiya oqimlarining vaqtincha pasayishi kabi muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Ushbu inqiroziy holatlar sharoitida O'zbekiston hukumati tomonidan o'z vaqtida to'g'ri olib borilgan tekor moliyaviy, fiskal va ijtimoiy choralar iqtisodiy tizimni barqarorlashtirish va global bosimlarni yumshatishda muhim rol o'ynadi. Raqamli texnologiyalarga asoslangan yondashuvlar, infratuzilmani diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat va energiya xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan siyosatlar mamlakat iqtisodiy turg'unligini ta'minlashga xizmat qildi. Shuni aytib o'tish joizki, O'zbekiston iqtisodiyoti hali ham o'sish va moslashish

jarayonida bo'lib, global inqirozlar uni tez-tez sinovdan o'tkazadi.. Biroq, barqaror institutsional islohotlar, diversifikatsiyalangan iqtisodiyot modeli va xatarlarni oldindan baholash mexanizmlarini rivojlantirish orqali kelajakdagi yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lgan inqirozlarga oldindan samarali himoya choralari ko'rilishi mumkin. Eng asosiymoslashuvchanlik, ilg'or texnologiyalar va inson kapitaliga sarmoya bu strategik barqarorlikning kalitidir.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Krugman, P., Obstfeld, M., & Melitz, M. (2018). International Economics: Theory and Policy. Pearson Education.
2. Stiglitz, J. (2010). Freefall: America, Free Markets, and the Sinking of the World Economy. W. W. Norton & Company.
3. Reinhart, C. M., & Rogoff, K. S. (2009). This Time is Different: Eight Centuries of Financial Folly. Princeton University Press.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. (2020). COVID-19 pandemiyasi davrida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash choralari to'g'risida qaror. URL: <https://president.uz>
5. Jahon banki. (2023). Uzbekistan Economic Update. URL: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan>
6. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR). (2022). Global inqirozlarning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri bo'yicha tahliliy ma'ruza. URL: <https://review.uz>
7. Statistika agentligi huzuridagi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi to'g'risida statistik axborot. URL: <https://stat.uz>
8. International Monetary Fund (IMF). (2022). World Economic Outlook: Countering the Cost-of-Living Crisis. URL: <https://www.imf.org>
9. UNCTAD. (2022). Trade and Development Report 2022. URL: <https://unctad.org>
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). Inqirozga qarshi choralar va moliyaviy barqarorlik strategiyasi. URL: <https://mf.u>